

“ДИРОНЕТ 500” PREPARATINING TAENIA HYDATIGENAGA TASIRI

*Alikulov Z.I. tayanch doktorant
Aminjonov Sh.M, v.f.d, ilmiy raxbar
Veterinariya ilmiy-tadqiqot inistituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada itlarning sestodoz kasalliklaridan biri bo'lgan (*Taenia hydatigena*) ning kelib chiqish sabablari, biologiyasi va qarshi kurashishda “ДИРОНЕТ 500” antigelmintik preparatining samaradorligi haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Аннотация. В статье приведены краткие сведения о причинах возникновения, биологии и эффективности антигельминтного препарата «ДИРОНЕТ 500» в борьбе с *Taenia hydatigena* – одним из цестодозов собак.

Abstract. This article provides brief information about the causes, biology and effectiveness of the anthelmintic drug "DIRONET 500" in the fight against *Taenia hydatigena*, one of the cestodosis diseases of dogs.

Kalit so'zlar: *Taenia hydatigena, skoleks, germofradit, Cysticercus tenuicollis, pirantel pomoat, prazikvantel, ivermectin*

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizning chorvachilik tarmog'iga mayda va yirik shoxli hayvonlarning sistiserkozi katta iqtisodiy zarar keltirishini barcha fermer xo'jaliklari misolida yillar davomida kuzatishimiz mumkin. Shuning uchun bu borada turli qarorlar ishlab chiqildi, qator izlanishlar, ilmiy tajribalar yanada kuchaytiradi. O'zbekiston Respublikasi Pezdidentining 2022 yil 8-fevraldagi PQ 121-sonli “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustaxkamlash chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori misol bo'la oladi hamda sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Respublikamizda sifatli va yetarli miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan birga ularni turli talofatlardan asrash, har xil kasalliklarning oldini olish orqali ham iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida yil mavsumida abiotik ekologik omillar (havo namligi, harorat, atmosfera bosimi) keskin o'zgarib turadi. Ushbu ekologik omillar barcha tirik organizmlarga, shu jumladan sestodozlarning taraqqiyotiga, ularning asosiy va oraliq xo'jayinlari organizmiga o'z tasirini ko'rsatadi.

Qo'ychilik xo'jaliklarida uchraydigan sestodoz kasalliklar chorvachilikka iqtisodiy zarar yetkazish bilan bir qatorda inson salomatligiga ham katta xavf tug'diradi.

Qo'ylar sistiserko'zi (*Cysticercus ovis*) subklinik ko'rinishda kechuvchi sestodoz bo'lib, qo'ylarning asosan charvisida yani yog' to'qimalarida parazitlik qiladi. Kasallikni *Taenia hydatigena* ning lichinkalik shakli *Cysticercus tenuicollis* keltirib chiqaradi. Kasallik qo'zg'atuvchisining asosiy xo'jayini it, bo'ri, shog'ol va boshqa go'shtxo'r hayvonlar hisoblanadi. Kasallik organizmning allergik javob qaytarilishi bilan xarakterlanadi. Kasallikning boshlang'ich (o'tkir) davrida oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi (ich ketish), tana haroratining ko'tarilishi, xolsizlanish, qorin devorini paypaslaganda og'riq sezishi kuzatiladi. Keyingi davrda klinik belgilar sezilmaydi, hayvon oriqlab borishi hamda ko'rinadigan shilliq pardalarning anemiyasi kuzatiladi.

T.H.Сивкова, Е.А.Доронин-Доргеленский (2018) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning ayrim mamlakatlarida, jumladan Sharqiy Efiopiyada 26,0 %, G'arbiy Avstraliyada 20,5%, Saudiya Arabistonida 23,0% qo'ylarda kasallik uchrashi aniqlangan.

A.O.Oripov, R.B.davlatov, N.E.Yo'ldoshev (2016) ma'lumotlariga ko'ra, Respublikamizda bu kasallik qo'y-echkillarda 70,0-80,0% gacha uchrashi aniqlangan.

Taenia hydatigena - (*Cysticercus tenuicollis*)ning voyaga yetgan shakli hisoblanib it, bo'ri, shog'ol va boshqa go'shtxo'r hayvonlarning ingichka ichaklarida parazitlik qilib yashaydi. Uning uzunligi 5 m, kengligi 7,5 mm. gacha keladigan tasmasimon, bo'g'inlarga bo'lingan sestodadir.

Teniylarning skoleksda ikki qatorda joylashgan 26-44 ta har xil kattalikdagi ilmoqchalar bilan qoplangan. Skoleks faqat xo'jayin organlarida uning shilliq pardasini shimib, mustaxkam xolda yopishish vazifasini bajaradi. Skoleksdan keyingi qismi qismi parazitning bo'yni bo'lib, bu o'sish zonasidir. U yerdan asta sekin yangi yangi bo'g'inlar (stobilalar) o'sa boshlaydi. Har bir bo'g'in ichida orgaqlar sistemasi joylashgan. Yetuk segmentlarda genital tuberkulyarlar aniq ko'rinadi, ular teng ravishda almashadilar. Yetuk segmentlarda bachadon 20-25 lateral shoxlari bo'lgan magistralga o'xshaydi.

Qo'zg'atuvchining biologiyasi. Voyaga yetgan parazit hayvonlar tezagi bilan minglab tuxumlar saqlovchi yetilgan bo'g'inlar ajratadi. Bazan bo'g'inlar ichaklarda yoriladi va tezak bilan parazit tuxumlari ham chiqadi. Chiqqan bo'g'inlar harakat qilib, yorilib tashqi muhitga tuxumlarni tarqatadi. Oraliq xo'jayin hisoblanuvchi qo'ylar mazkur bo'g'in va tuxumlari bilan zararlangan ozuqa va ichimlik suvi orqali kasallanadi. Oshqozon-ichak tizimiga tushgan teniya tuxumlaridan onkosfera ajralib chiqib, ingichka ichakning shilliq pardasini teshib, kapilyar qon tomirlariga o'tadi va qon-limfa oqimi bilan muskul to'qimalari, yurak, jigar va charviga borib joylashadi, u yerda rivojlanib, 3 oydan keyin sistiserk pufagini hosil qiladi.

It, bo'ri, shog'ol va tulkilar sistiserk pufagini istemol qilib zararlanadi va parazit 3-3,5 oy ichida jinsiy voyaga yetgan shaklga aylanib, organizmda ko'p yil yashashga qodir.

Tadqiqotning maqsadi. Respublikamizning qo'ychilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarida qo'ylar orasida asosiy sestodozlardan biri hisoblangan *Cysticercus tenuicollis* ning epizootologik holatini o'rganish, oldini olish maqsadida ularning asosiy xo'jayini hisoblangan itlarni gijjasizlantirishda yangi antigelmantik preparatlarni sinovdan o'tkazishdan iborat.

Tadqiqot obekti va usullari. Tadqiqotlarimiz Veterinariya ilmiy tadqiqot inistituti "Gelmintozoonoz" laboratoriyasining tajriba hayvonlarini saqlash maydonchasida hamda gavda yorish honasida K.I.Skriyabinning noto'liq gelmintologik yorish usulida o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Qishloq xo'jalik hayvonlari orasida turli xil parazitlar kasalliklarning tarqalishida itlar muntazam ishtirok etishi sababli, ularni gijjasizlantirib borish- sestodozlarga qarshi tadbirlar orasidagi muhim va samarali hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz davomida itlarni gijjasizlantirishda Rossiya Federasiyasida ishlab chiqarilgan "ДИРОНЕТ 500" antigelmantik preparatlarning tasirini o'rganish maqsadida tajribamiz asosida sinovdan o'tkazildi.

Biz tadqiqotlarimiz davomida "Gelmintozoonoz" laboratoriyasi tajriba hududida saqlanayotgan, sistiserk pufaklari bilan suniy zararlantirilgan 3 bosh itlarda olib bordik. Itlar laboratoriyaning tajriba hududida maxsus kataklarda 1 boshdan qilib 3 guruxga ajratilgan.

"ДИРОНЕТ 500" (1 ta tabletka tarkibida pirantel pomoat – 150 mg, prazikvantel – 50 mg, ivermektin 0,06 mg) saqlovchi preparat bo'lib 1 ta tabletka 10 kg tirik vazn hisobida berildi.

1-jadval

Itlardagi *Taenia hydatigena* ga qarshi "ДИРОНЕТ 500" preparatini qo'llash

№	Rangi	Yoshi	Jinsi	Tirik vazni kg	Berilgan antigelmantik miqdori	Berilgan antigelmantik turi
1	Sariq	3	Erkak	10	1 tabletka	"ДИРОНЕТ 500"
2	Qora	2	Erkak	6	0,5 tabletka	
3	Malla	4	Erkak	15	1,5 tabletka	

Biz tadqiqotlarimiz davomida tajribadagi itlarning har kg tirik vazniga qarab antigelmantik preparatini berdik, ya'ni 10 kg tirik vaznga ega bolgan itga 1 ta tabletka, 6 kg tirik vazndagi itga 0,5 (yarim) ta tabletka, 15 kg tirik vazndagi itga esa 1,5 (bir yarim) ta tabletka berildi.

Tajribadagi itlarga antigelmantik preparati berilgandan so'ng 72 soat ichida itlarning tezak namunalari gelmintokapnologik tekshirildi. Tekshirish natijalari quidagi jadvalda bayon etilgan.

Itlarning tezak namunasini gelmintokoprogik tekshirish natijalari

№	Rangi	Yoshi	Jinsi	Tirik vazni (kg)	Berilgan antigelmantik miqdori	Tekshirish natijalari (T.hydaticenia)
1	Sariq	3	Erkak	10	1 tabletka	1 nusxa
2	Qora	2	Erkak	6	0,5 tabletka	1 nusxa
3	Malla	4	Erkak	15	1,5 tabletka	2 nusxa

Tajribadagi *T.hydaticenia* bilan suniy zararlantirilgan itlarga “ДИРОНЕТ 500” antigelmantik preparatlarni sinovdan o'tkazish uchun berilganda ulardan 2 bosh itning tezak namunasidan 1 ekzempilyardan, 1 bosh itning tezak namunasidan esa 2 ekzempilyardan parazit topildi.

Tezak namunalarini gelmintokoprogik tekshirilganidan keyin yakuniy diagnoz qo'yish uchun “Gelmintozoonoz” laboratoriyasining gavda yorish honasida K.I.Skriyabinning noto'liq gelmintologik yorish usuli bilan itlarning ingichka ichak tizimi tekshirildi. Ingichga ichaklar tekshirilganda 2 bosg itning ichagidan 1 tadan skoleks topildi. Tekshirishlar natisasiga ko'ra “ДИРОНЕТ 500” preparatining samaradorligi 90,0 % ni tashkil etganligi aniqlandi

Xulosalar

1. Qo'ylar orasida *Cysticercus tenuicollis* ning tarqalishida itlar muntazam ishtirok etishi sababli, ularni gijjasizlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.
2. Itlardagi *Taenia hydatigena* ga qarshi yangi antigelmantik preparatlardan “ДИРОНЕТ 500” preparatining samaradorligi 90,0 % ni tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бессонов А.С. “Тениоз *Taenia solium*-цистицеркоз”. Монография. Москва 1996.
2. Бессонов А.С. “Цистный эхинококкоз и гидатидоз”, Монография. Москва 2007.
3. Oripov A.O., Davlatov R.B., Yo'ldoshev N.E. “Veterinariya gelmintologiyasi”. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2016.
4. Сивкова Т.Н., Доронин-Доргеленский Е.А. “Ларвальные цестодозы. Биология, патология, Ветеринарно-санитарная экспертиза и контроль”. Учебное пособие. 2018.